

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

3-son (4- jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 3 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холиқулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудир;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Hamroyev Asliddin Umed o'g'li

“GULSHANUL MULUK” (“SHOHLAR GULSHANI”) ASARI – MANG'ITLAR HUKMRONLIGI DAVRI MUARRIXLIGI NAMUNASI 13-18

Bazarbayeva Shohsanam Muratovna

SIRDARYO VILOYATIDA VETERINARIYA SOHASIGA OID ISLOHOTLAR (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI) 19-23

Asadova Dilnoza Innatovna

O'ZBEKISTONDA RAQS SAN'ATI SOHASIDA KADLAR TAYYORLASH MASALASI TARIXI VA BUGUNI 24-28

Ҳайитов Умед Яҳёевич

ЎЗБЕКИСТОН ССР МУВАҚҚАТ ИНҚИЛОБИЙ ҚЎМИТАСИ (МАРКАЗИЙ РЕВКОМ)НИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИ ВА ФАОЛИЯТИ 29-34

Омонова Сарвиноз Ориф қизи

ЎЗБЕКИСТОНДА СОВЕТ ДАВРИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТНИНГ ҲОЛАТИ... 35-42

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Алимханова Нигора Алимхановна

ТОВАР-МОДДИЙ ЗАХИРАЛАР АУДИТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 43-52

Маҳмудова Дилафруз Hasanovna

KORPORATIV BOSHQARUVNING AYRIM NAZARIY JIHATLARI 53-60

Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li

SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNING EKONOMETRIK MODELASHTIRISH 61-69

Меҳмоналиев Улугбек Эркинжон угли

СУЩНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ СЛУЖБЫ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ . 70-75

Паязов Мурод Максудович

“ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛЛАРИ” АЖДА ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШ МЕТОДИКАСИ 76-86

Шадибекова Дилдор Абдурахмановна

ЛОГИСТИЧЕСКИЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА И ПРОБЛЕМЫ ЕГО РАЗВИТИЯ 87-92

Malikova Dilrabo, Khudoiberdieva Maftunabonu

INNOVATIVE HR MANAGEMENT: NECESSITY AND METHODS OF APPLICATION 93-99

Мамажоновна Одинахон Алишер қизи

КОРХОНАЛАР БОШҚАРУВИДА ИННОВАЦИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ 100-106

Nozimov Eldor Anvarovich

ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANISHDA O'ZBEKISTON VA HORIIY DAVLATLARNING O'RNI 107-115

Буранова Жазира Эргаш қизи

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ НА ИНКЛЮЗИВНЫЙ РОСТ ГОСУДАРСТВА 116-120

<i>Худойназаров Фахритдин Хаитович</i> КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ АҲАМИЯТИ	121-127
<i>Бахтиёрлов Бобур Баходир ўғли</i> ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ВА БАНК ЛИКВИДЛИГИНИ БОШҚАРИШНИНГ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ	128-136
<i>Isomitdinova Gulbaxor Kurbonaliyevna</i> O'ZBEKISTON SHAROITIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	137-145
<i>Yuldashev Shadiyor Shuxrat o'g'li</i> OLIV TA'LIM O'QUV JARAYONLARIDA ZAMONAVIY VEB TEXNOLOGIYALARI INTEGRATSIYASI	146-150
<i>Baxtiyorov Asrorbek Azizjon o'g'li</i> TIJORAT BANKINING KREDIT SIYOSATI ASOSLARI, UNING IQTISODIY MOHIYATI	151-159
<i>Saidov Shohruh Mirzo</i> SOCIO-ECONOMIC ANALYSIS OF CONDITIONS OF DEVELOPMENT OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	160-169
<i>Kunduzova Kumrixon Ibragimovna</i> IQTISODIY RIVOJLANISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR FAOLIYATIDAGI JORIY AKTIVLAR TUSHUNCHASI VA UNING O'RNI	170-177
<i>Inomjon Matkarimov</i> AGROKIMYO BIOKIMYO XIZMATLARI IJTIMOIV IQTISODIY SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING SWOT TAHLILI	178-183
09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>G'aybullayev Otabek Muxammadiyevich</i> JAMIYATDA ESTETIK MADANIYAT RIVOJLANISHINING FALSAFIY ASOSLARI	184-189
<i>Masharipova Gularam Kamilovna</i> MAHMUD IBN MUHAMMAD IBN UMAR AL-CHAG'MINIYNING «AL-MULAXXAS FI-L-HAY'A» RISOLASINING NUSXALARI VA QOZIZODA RUMIYNING SHARHI	190-198
<i>Абдуллаханова Гулбахор Саттаровна</i> ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ИБН СИНО И ИХ РОЛЬ В УКРЕПЛЕНИИ ДУХОВНО- ЦЕННОСТНЫХ ОСНОВ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЦИВИЛИЗАЦИИ	199-206
<i>Urinov Xushnudjon Abdulomitovich</i> TA'LIM VA KASB-HUNAR ISLOHOTLARI GENEZISI: KASBIY FAOLIYAT VA MEHNATGA MUNOSABATNING TARIXIY SHAKLLANISHI	207-220
<i>Азизкулов Акрам Абдурахмонович</i> ШАРҚШУНОС УИЛЬЯМ ЭРСКИН ТАДҚИҚОТЛАРИДА БОБУРИЙЛАР СУЛОЛАСИ ТАРИХИНИНГ ЁРИТИЛИШИ	221-227
<i>Kenjayev Ulug'bek Muratovich</i> BEFARQLIK HAQIDAGI FALSAFIY FIKRLAR RIVOJI	228-232
<i>G'aybullayeva Laylo Safarboyevna</i> MAHALLADA YOSHLAR SIYOSIY FAOLIGINI OSHIRISHDA IJTIMOIV-FALSAFIY RIVOJLANISH MASALALARI	233-238

<i>Хо'janova Tamara Jo'raevna</i> YOSHLAR MA'NAVİYATIGA TAHDID VA ULARDAN O'ZINI ONGLI HIMOYA QILISH KO'NIKMALARI	239-245
<i>Jabborova Saodat Sattorovna</i> MA'NAVİY SALOHİYATNING IJTIMOİY TARAQQIYOT MANBAI SIFATIDA XUSUSIYATLARI	246-252
<i>Xusanov G'olib Elmurodovich</i> O'ZBEK OILALARINING RIVOJLANISHIDA AXLOQIY TAFAKKUR MASALALARI	253-257
<i>Agzamходжаева Шахноза Саидматмабoвна</i> МУСУЛЬМАНСКОЕ БОГОСЛОВИЕ, СВЯЩЕННЫЙ КОРАН И ТВОРЧЕСТВО НАВОИ В КОНТЕКСТЕ ФИЛОСОФСКОЙ КОМПАРАТИВИСТИКИ	258-265
<i>O'razov Bobir Baxtiyorovich</i> IJTIMOIY DAVLATNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI: VUJUDGA KELISH SHARTLARI, BELGILARI VA FUNKSIYALARI	266-270
<i>Qunishev Ulug'bek Ulashevich</i> NEMIS KLASSIK FALSAFASIDA JAMIYAT RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI AXLOQIY VA ESTETIK OMILLAR	271-275
<i>Турдибоев Бозор Худойбердиевич</i> ЦИВИЛИЗАЦИЯЛАР ТАРИХИЙ ЯХЛИТЛИК НАМОЁН БЎЛИШ ШАКЛЛАРИ СИФАТИДА	276-282
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i> MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI TA'LIMOTIDA O'ZLIKNI ANGLASH TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	283-287
<i>Azamatova Gulrukh Islom qizi</i> SOCIOCULTURAL ASPECTS IN KARL POPPER'S PHILOSOPHY IN THE CONTEXT OF MODERN EDUCATION	288-293
<i>Тошпулатова Ширин Мухиддиновна</i> ЭТИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ГРАЖДАНСКОЙ СЛУЖБЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	294-302
<i>Yuldasheva Dilorom Yuldashevna</i> SCIENTIFIC ATTITUDE TO CONSCIOUSNESS AND ITS INFLUENCE ON THE FIELD OF EDUCATION	303-307
<i>Bekchanov Xudoybergan O'rinovich, Yusupova Firuza Hajiboy qizi, Yuliyeva Sohiba Shuhrat qizi</i> МАКТАВГАСНА YOSHDAGI КАТТА GURUH TARBIYALANUVCHILARDA IJTIMOİY VA KOMMUNIKATIV QOBILYATNING RIVOJLANISHI	308-314
10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Ткебучава Ирина Георгиевна</i> ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ	315-320
<i>Ikromxonova Firuza Ikromovna, Jazira Nursultanqizi</i> TIPOLOGIK TAHLIL - KOMPOZITSIYA VA JANR (TARIXIY ASARLAR MISOLIDA)	321-327

<i>Ashurova Maftuna Asqar qizi</i> LINGUACULTURAL PECULIARITIES OF THE CONCEPT “HAPPINESS” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	328-334
<i>Mustafayeva Saodat Burxanovna</i> SALIM ASHUR SHE’RLARIDA LINGVOMADANIY BIRLIKLAR VOSITASIDA VOQELIKNI BADIY TALQIN ETISH	335-340
<i>Abdulxayeva Nodirabegim Ixtiyorjon qizi</i> DRAMATIK ASARLARNI TARJIMA QILISHDA LEKSIK-SEMANTIK, LINGVOKULTUROLOGIK MASALALAR	341-346
<i>Xajiyeva Dilfuza Adambayevna</i> FOLKLOR VOSITALARINING ZAMONAVIY ADABIYOTDAGI O’RNI VA O’RGANILISHI	347-351
<i>Jumanova Sevara Xolmurod qizi</i> KIYIM KECHAK NOMLARI TILNING BOYISH MANBAI SIFATIDA	352-356
<i>Hojaliyev Ismail Tadjibayevich, Ismailova Sayyora Tolkinovna</i> MATN NAZARIYASINING SHAKLLANISHI	357-366
<i>Abdullaev Ulmasbek Khairullayevich</i> LITERARY WORKS AS THE MOST IMPORTANT AND WELL-ACCLAIMED COMPONENTS OF THE CULTURAL HERITAGE OF THE NATION	367-370
<i>Maxmudova Fotima Maqsud qizi</i> TYPES OF MEDIA TEXT LANGUAGE	371-375
<i>Maxmudova Zuhra Maqsud qizi</i> BADIY TARJIMANING TILSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI	376-380
<i>Davronova Zulfiya Boboyevna</i> UZBEK- FRENCH RELATIONS AS A BINDING PART OF INTERNATIONAL CULTURAL AND HISTORICAL EXPERIENCE	381-386
<i>Hakimova Dilrabo Yo’ldoshovna</i> TERMINOLOGIYA SOHASINING TARIXI VA DOLZARB MUAMMOLARI XUSUSIDA	387-392
<i>Мадрахимов Тулибай Абдукаримович</i> СЎЗЛАШУВ НУТҚИНИНГ ТИЛ ФУНКЦИОНАЛ ВАРИАНТЛАРИ ОРАСИДА ТУТГАН ЎРНИ	393-395
12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Ergashev Ikrom Abdurasulovich</i> SOLIQ INTIZOMINI BUZISH BILAN BOG’LIQ HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN JAVOBGARLIKNING AYRIM JIHATLARINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI	396-402
<i>Куатбек Гулнар Куатбековна</i> ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ТРАНСПАРЕНТНОСТИ ПРЕДСТАВИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ МЕСТНОЙ ВЛАСТИ	403-409
<i>Jurayev Dilmurot Mukhtarovich</i> ANALYSIS OF THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ON ALTERNATIVE RESOLUTION OF DISPUTES ARISING FROM ADMINISTRATIVE AND PUBLIC LEGAL RELATIONS	410-415

<i>Mirakhmedova Fazilat Khokim kizi</i> CRIMES OF MANUFACTURING AND SELLING PHARMACEUTICALS IN A WAY TO DANGER THE LIVES AND HEALTH OF INDIVIDUALS (Evaluation of Türkiye and Uzbekistan legal system)	416-428
<i>Касимов Нодиржон Содикжонович</i> ҚАСДДАН ОДАМ ЎЛДИРИШ ЖИНОЯТЛАРИНИНГ УМУМИЙ ВИКТИМОЛОГИК ПРОФИЛАКТИКАСИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ	429-438
<i>Кутыбаева Елизавета Дуйсенбаевна, Есенбаев Джанибек Таирович</i> ЭКОЛОГИК ТУСДАГИ ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАРДАН МУҲОФАЗА ҚИЛИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	439-445
<i>Джалилов Сардор Шавкатович</i> ҲУҚУҚ МАНБАЛАРИ ВА НОГИРОНЛИГИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ҲУҚУҚЛАРИНИ КОДИФИКАЦИЯ ҚИЛИШ ЖАРАЁНИ	446-453
13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
<i>Mirzayev Qodir Toirovich</i> ZAMONAVIY XOR SAN'ATI TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	454-458
<i>Васильченко Ольга Анатольевна</i> ИСТОРИЯ И МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНО-ХОРОВОГО ИСКУССТВА В УЗБЕКИСТАНЕ	459-463
<i>Эрназаров Алишер Эргашевич, Бекмурадов Зариф Хуррамович</i> ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИНГ МОДУЛЛИ ВА ЛОЙИХАЛАШТИРИЛГАН ТУРЛАРИ ҲАМДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ	464-470
<i>Mattiyeva Feruza Begmatdulobovna</i> TARJIMONLIK MALAKASINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLINGVISTIK VA DIDAKTIK XUSUSIYATLARI	471-477
<i>Jurayev Bobomurod Tojiyevich</i> ABU ALI IBN SINO QARASHLARIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI	478-482
<i>Umurova Ma'rifat Yoshiyevna</i> XALQ QO'SHIQLARI VATANPARVARLIK TUYG'USINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA	483-486
<i>Raxmanova Dildora Abdulxamid qizi</i> INGLIZ TILIDA AKADEMIK YOZUV TUSHUNCHASI VA UNING TALABALAR ILMIY FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI	487-492
<i>Rajabiy Aziz Xasanovich</i> VOKAL ARTISTI FAOLIYATIDA SAHNA MAHORATINING O'RNI	493-497
<i>Omanov Rashid Sherqobilovich</i> O'QUVCHILARDA EKOLOGIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARINI TO'G'RI TASHKIL ETISH	498-501
<i>Салимов Ақром Хайитович</i> БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ОИЛА, МАҲАЛЛА ВА МАКТАБ ҲАМКОРЛИГИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ	502-507
<i>Mamatmurodov Sharofjon Khudoyarovich</i> TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	508-514

<i>Ли Екатерина Владимировна</i> СИНЕРГЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИННОВАЦИЙ И ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	515-523
<i>Ахмедова Нафиса Исаходжаевна, Азаматов Абдулло Исахўжа ўғли, Лутфуллина Румия Анваровна</i> ЁШ ТЕННИСЧИЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ҲАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ	524-533
<i>Очилова Мехрибон Суратовна, Хамроева Феруза Асроровна</i> АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ И ИХ КЛАССИФИКАЦИЯ	534-541
<i>Амонов Mirjon Namozovich</i> IJTIMOIY PEDAGOGIK FAOLIYAT VA UNING ASOSIY FUNKSIYALARI	542-547
<i>Sharipov Habibullo Abduqahhorovich</i> TALABALARNING IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI	548-552
<i>Yaxiyaxonova Muxiba Maxmudjonovna</i> RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IT SAVODXONLIGINI OSHIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	553-560
<i>Xakimova Gulshan Abdusalilovna</i> JISMONIY TARBIYA VOSITALARI ORQALI YOSH BOLALARNI SIFATLARINI TARBIYALASH	561-565
<i>Nazarov Rustam Irkinovich</i> TECHNOLOGY FOR DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE OF STUDENTS IN HIGHER TECHNICAL EDUCATION FIELDS (IN THE EXAMPLE OF ENGLISH LANGUAGE)	566-570
<i>Muqimova Fotima Abduqaxor qizi, Muqimova Zuxra Abduqahor qizi</i> CHIZMACHILIK DARSLARIDA O'QUVCHILARNING GRAFIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA O'YINLI TEXNOLOGIYALADAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	571-576
<i>Sulaymanova Dildora Nazarovna, Giyasova Shaxnoza Abdurafikovna</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KREATIV TAFAKKURINI LOYIHAGA ASOSLANGAN O'QITISH VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH MODEL I	577-585
<i>Usmonova Matluba Nosirovna</i> O'QUVCHILARDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI TARBIYALASH METODIKASINING KREATIV PEDAGOGIK YONDASHUVI	586-590
<i>Ustaev Abdurazzoq Qurbonovich</i> MILLIY KURASH SPORT TURINING FUNKSIYALARI VA MAQSADGA ERISHISHDAGI VOSITALARI	591-596
<i>Shoimqulova Nigina Xolmurodovna, Yadigarova Sitara Bahromovna</i> ADDRESSING CHALLENGES IN TEACHING ENGLISH IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES: A SCHOLARLY EXAMINATION	597-603
<i>Yeshanov Marat Urazaliyevich</i> INGLIZ TILINI O'QITISHDA BO'LAJAK CHET TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA PRAGMATIKANING AHAMIYATI LANGUAGE]	604-616

Tursunova Shahnoza Bekchanovna

JAMOATCHILIK FIKRINI SHAKLLANTIRISHDA JAMOATCHILIK BILAN ALOQALARNING
O'RNATISH 617-622

Atoyeva Gulshoda Rabimovna

OILADAGI ZO'RAVONLIKNING O'SMIR XULQIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI 623-628

Musinova Ruxshona Yunusovna, Qurbonova Aziza Davlat qizi

JABRLANUVCHI SINDROMI, UNING ASOSIY SABABLARI VA BELGILARI 629-635

Jamolova Mokhigul Bakhtiorovna

METHODS OF DEVELOPING THE CRITICAL THINKING ABILITY OF PRIMARY CLASS
STUDENTS THROUGH FAIRY TALES 636-641

Ikromxonova Firuza Ikromovna
Filologiya fanlari doktori, professor,
Toshkent davlat pedagogika universiteti
feruzaikr@mail.ru

Jazira Nursultanqizi
Bolashak Qizilo'rda universiteti
filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Qozog'iston

TIPOLOGIK TAHLIL - KOMPOZITSIYA VA JANR (TARIXIY ASARLAR MISOLIDA)

Annotatsiya. Maqolada To'maris, Janna d' Ark haqidagi asarlarning qiyosiy-tipologik tahlillari binar, trinar usullar yordamida amalga oshirilgan. Bunda tarixiy voqea, tarixiy shaxs haqidagi ma'lumotlar yillar davomida xalq og'zaki ijodida sintezlashib, evolyusion taraqqiyotni bosib o'tishi natijada bo'lib o'tgan voqea ishtirokchilari tasviri badiylashib folklorizmning qator jihatlari bilan omuxtalashib ketishi ilmiy isbotlangan. Maqolada ob'ekt qilib olingan roman va qissaning ma'lum jihati tahlili, mazkur personajlarga asos bo'lgan real voqelik, obrazlarning badiiy ifodasi, badiiy asarlar strukturasi o'zaro qiyosiy tahlil etish orqali har bir obrazning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash asosiy maqsad qilib olingan. Bu esa yangi davr milliy adabiyoti saviyasini belgilashda umuminsoniy tamoyillarga suyanishni, o'zbek adabiyotida qadimdan yuksak badiiy asarlar yaratilganini isbotlashni, uning mumtoz namunalarini jahon ommasiga tavsiya etilishini kun tartibiga olib chiqqan.

Kalit so'zlar: rivoyat, doston, roman, obraz, tipologiya, badiiy asar, badiiy evolyusiya, binar tahlil, trinar tahlil.

Ikromxonova Firuza Ikromovna
Doctor of Philology, Professor,
Tashkent State Pedagogical University

Jazira Nursultanqizi
Bolashak Kyzylorda University
candidate of philological sciences, associate professor, Kazakhstan

TYPOLOGICAL ANALYSIS - COMPOSITION AND GENRE (IN THE EXAMPLE OF HISTORICAL WORKS)

Abstract. The article provides a comparative typological analysis of works about Tumaris, Joan d' Arc using binary, ternary methods, and it was scientifically proven that evolutionary development took place when information about the historical event and historical figure was synthesized for many years in oral art and as a result, the image of historical figures was enriched and mixed with a number of aspects of our folklore. The main purpose of the article is to identify the similarities and differences of each image through the analysis of works, the reality on which these characters are based the artistic expression of images, a comparative analysis of the structure of the work. This led to the necessity of relying on universal principles in determining the level of national literature of the new period, to prove that Uzbek literature has long been a work of art, to recommend its classics to the world community.

Keywords: narration, epic, novel, image, typology, work of art, evolution, binary analysis, ternary analysis.

Икромхонова Фируза Икромовна
доктор филологических наук, профессор,
Ташкентский государственный педагогический университет

Джазира Нурсултанкизи
Университет Болашак Кызылординский
кандидат филологических наук, доцент, Казахстан

ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ - СОСТАВ И ЖАНР (НА ПРИМЕРЕ ИСТОРИЧЕСКИХ СОБЫТИЙ)

Аннотация. В статье приведен сравнительный типологический анализ произведений о Тумарисе, Жанне д'Арк с использованием бинарных, тернарных методов, и было научно доказано, что эволюционное развитие имело место, в которых информация об историческом событии и историческом деятеле, на протяжении многих лет синтезируется в устном творчестве, в результате, образ исторических фигур был обогащён и смешан с рядом аспектов нашего фольклора. Основной целью статьи является выявление сходства и различий каждого изображения посредством анализа произведений, реальности, на которой основаны эти персонажи, художественного выражения изображений, сравнительного анализа структуры произведения. Это привело к необходимости опираться на универсальные принципы при определении уровня национальной литературы нового периода, доказать, что узбекская литература издавна была произведением искусства, рекомендовать ее классику мировому сообществу.

Ключевые слова и фразы: повествование, эпос, роман, образ, типология, произведение искусства, эволюция, бинарный анализ, тернарный анализ.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI1Y2024N43>

Milliy adabiyot rivojlanishi, yozuvchi mahoratining o'sib borishida, asosan, milliy o'zlikni anglash, milliy an'ana va novatorlik, boshqa adabiyot va asarlar ta'siri hamda tipologiyaning o'rni katta ahamiyatga ega. Adabiyotshunoslikdagi mazkur uch xususiyat orasida tipologiya, adabiy asarlarning tipologik tahlili o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Zero, "Tipologiya – vaqt va manzil, davr va zamondan qat'iy nazar, turlicha yaqin va uzoqlikdagi turli adiblarning ijodi va milliy adabiyotlar aro: dunyoqarash, irq, din, taraqqiyotga bog'lanmagan ravishda zohir topuvchi, ta'sir rol o'ynamagan holda badiiy tafakkur xosliklarida ijodiy metod, yo'nalish, oqim, ijod tipi va uslubidan tortib, har bir alohida san'atkor ijodida dunyo va insonni ko'rish hamda ularni badiiy aks ettirish masalalarida namoyon bo'luvchi yaqinlik, o'xshashlik, muqobilik, hamohanglik, ayniyatdoshlikdir" (7, 6). Akademik B.Nazarovning yuqoridagi mulohazalaridan kelib chiqib, To'maris va Janna d' Ark haqidagi badiiy asarlarning ikki (binar) va uch (trinar) tomonlama tahlilini amalga oshirish, mazkur personajlarga asos bo'lgan real voqelik, obrazlarning badiiy ifodasi, asarning tuzilishini o'zaro qiyosiy tipologik tahlil etish orqali har ikkala obrazning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash muhim sanaladi. Chunki Gerodotning "Tarix" asaridagi "To'maris" tarixiy rivoyati, "Oysuluv" dostoni, M. Tvenning "Janna d' Ark" romanining yonma-yon qo'yilishi o'zbek va ingliz adabiyotini jahon adabiyotining tarkibiy qismi sifatida ko'rishni taqozo etadi. Bu esa tadqiqotimizda yangi davr milliy adabiyoti saviyasini belgilashda umuminsoniy tamoyillarga suyanishni, o'zbek adabiyotida qadimdan yuksak badiiy asarlar yaratilganini isbotlashni, uning mumtoz namunalarini jahon ommasiga tavsiya etishni kun tartibiga olib chiqadi. Bunda tadqiqotchi ikki xalq madaniyati, san'ati, dunyoqarashi, turmush tarzini bilishi muhim bo'lib, "trinar tipologiyada binar tipologiyada ko'rilmagan jihatlar – mushtarakliklar ochilishi, hatto paydo bo'lishi mumkin"ligini anglashi muhim hisoblanadi. (6, 80).

Sharq, xususan, turkiy-o'zbek adabiyotida ham To'maris obrazi o'z o'rniga ega. Qadimgi yunon manbalaridan bizgacha etib kelgan tarixiy rivoyatning ildizlari o'zbek xalq og'zaki ijodida ham uchraydi. Xususan, To'maris tarixiy rivoyatidagi mavzu va g'oya, syujet va kompozitsiya o'xshashligini "Oysuluv" dostonida uchratish mumkin (8). Buni o'z vaqtida olim Xodi Zarif ham e'tirof etgan (3, 36-38). Komil Imomov esa "Oysuluv" tarixiy dostoni, uning voqealari "To'maris"ga o'xshab ketadi. Shunga qaramasdan "Oysuluv" "To'marisning aynan o'zi emas", degan fikrni aytadi (4, 100-101).

Darhaqiqat, "To'maris" janr jihatdan tarixiy rivoyat bo'lib, unda real tarixiy shaxslar (To'maris, Kir, Krez, Sparganis), tarixiy joy, daryo (Midiya, Kaspiy (Kaspiy)ning Sharqiy tomoni, massagetlar yurti, Araks) va forslarning eramizdan oldingi 529 yilda Markaziy Osiyo tomon amalga oshirgan harbiy urushi, Kirning o'limiga sabab bo'luvchi tarixiy jang aniq bayon qilingan. Massagetlarning turmush tarzi (massagetlar turmush tarzi hozir mavjud emas yo tarixiga oid, shuning uchun shunday yoziladi) ham, To'marisning o'z kulti bo'lgan Quyosh nomiga qasam ichishi ham tarixiylik kasb etadi.

"Oysuluv" epik dostoni esa kompozitsion jihatdan murakkabroq asar bo'lib, mavzusi ishqiy-sarguzashtga asoslanadi. Murakkabligi shundaki, dostonida ichki makon va zamon kategoriyasi o'ta tig'iz berilgan. Natijada uzoq yillik urush fojiasi qisqa satrlar mazmuniga singdirib yuborilgan. Bu esa voqelikni teran anglash, tushunish, jiddiy mushohada etishda biroz qiyinchiliklar tug'diradi. Buni quyidagi parchada kuzatish mumkin: *"Eron bilan Turon podsholari qadimdan bir-biri bilan taraf ekan. Go'ro'g'lining ham Eron podsholari bilan taraf bo'lgani qadimdan meros ekan. U zamonlarda Eronda Doro degan podsho bo'lar ekan. Doro Turon mamlakatiga yovlab kelib elni talab, tog'da, yaylovda qo'nib yotgan elga tashvish solib, odamlarni uy-o'tovi bilan, suri-galasi bilan, echki-takasi bilan, qo'zi-qo'chqori bilan – jami davlati bilan o'lja olib, Eronga haydab ketar ekan. Turon podshosi xabar topganda, ortidan quvib borib, goh cho'lda, goh tog'da urush qilib yengsa, bog'anag'i elni haydagan moli bilan olib qolar ekan; engilsa, Doroning askarlari Eronga haydab ketar ekan. Odamlarni qul qilib sotar ekan, o'lja mollarni amal-amaliga qarab bo'lar ekan* (8, 7). Keltirilgan parcha asar syujetida ekspozitsiya vazifasida kelib, unda Turon va Eron mamlakatlarining uzoq tarixida kechgan qator voqealar, xalq boshidan kechirgan fojialar umumlashma tarzda berilgan. Bu orqali baxshi tinglovchi qalbida o'z vatani, tarixi, o'z xalqi qismatiga nisbatan mehr uyg'otadi.

Keyin o'rinlarda esa umumiy voqea, umumiy tarix aniq voqea va individual tarixga aylana boradi: *"Turon mamlakatida Oysuluv degan alp bir xotin podsholik qilar ekan, ko'p suluv ayol ekan. Buning suluvligiga Iram bog'i parilarining ham rashki kelar ekan. Oysuluvning olp bir o'g'li bor ekan, otini Kunbotir der ekan. Oysuluv podshoning lashkarboshisi o'zining o'g'li Kunbotir ekan"*(8, 7).

Mazkur parchada biz qadimgi xalqimizning badiiy-estetik qarashlari hozirgidan tubdan farq qilishini kuzatishimiz mumkin. Oysuluv ismli go'zal, uning chiroyiga parilar ham rashk qiladigan ayol, undagi nafislik, nazokat bilan birga alplik xususiyati nuqtai nazaridan bir obrazga nisbat berilgan. Bu, avvalo, qadimda go'zallik va alplik bir o'zakka ega bo'lganini bildiradi. Ikkinchidan, personajlarning ismlari ham Oysuluv, Kunbotir bo'lib, turonliklarning e'tiqodiy tushunchasidan kelib chiqqan. Uchinchidan, esa mamlakatda boshqaruv (ona – podsho, o'g'li – lashkarboshi) sulolaviy ekanligiga ishora bor. To'g'ri, dostonida bu darajaga Kunbotir o'z kuchi va jasorati bilan erishganiga ishoralar mavjud, lekin sulolaviy boshqaruvga amal qilingani ham manbada e'tirof etilgan (8,9). To'rtinchidan, dostonning aynan shu erida

“To‘maris” tarixiy rivoyatiga nisbatan o‘xshashlik kuzatiladi. Xususan, Eron qo‘shinining To‘maris boshqaruvidagi mamlakatga bostirib kirishi, unga ham soxta muhabbat izhor qilinishi, Doro qo‘shinini ham ayol boshchiligidagi qo‘shin yengishi fikrimiz isboti bo‘la oladi. Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib, To‘maris voqeasi evolyutsion taraqqiyot davomida jiddiy o‘zgarishlarga uchrab, xalq orasida badiiylashgan shaklda yashab kelgan, deyish mumkin. “Xullas, kishilik jamiyatining tobora o‘zgarib, ma’naviy jihatdan o‘sib borayotganini faqat tarix emas, unga uzviy bog‘langan adabiyot ham, yangi-yangi adabiy qahramonlari ham ko‘rsatib turibdi. Adabiyotning g‘oyaviy mazmundagi o‘zgarishi uning shaklini ham o‘zgartirmay qolmaydi” (5,10). Shu ma’noda To‘maris haqidagi tarixiy rivoyat ham o‘zining tarixiy taraqqiyoti davomida o‘zgarishga uchragan hamda yangi shakl va mazmundagi dostonga asos bo‘lgan. To‘g‘ri, adabiy-tarixiy jarayon doimiy harakatdagi voqelik bo‘lib, unda an‘ana va novatorlik masalasi yetakchilik qiladi. Shuning uchun “Oysuluv” dostonida biz, avvalo, Ergash Jumanbulbulga mansub Qo‘rg‘on (Nurota) dostonchilik maktabiga xos ishqiy-sarguzashtlik, asarlarning hajman kichikligi, mifik syujet elementlarining qo‘llanishini kuzatishimiz mumkin. Lekin doston bayonida bir syujet chizig‘idagi voqealarni to‘xtatib, ikkinchisiga o‘tishda xalq ertaklari yoki boshqa dostonlarda uchraydigan “Endi gapni boshqa yoqdan eshiting” (8, 10, 15, 20) qabilidagi jumla bilan syujet bog‘lanishini an‘anaviy kompozitsion qurilish unsuri deyish mumkin. Oftob oyim Kunbotirni ko‘rib, uni sevib qolishi va unga ozodlikni taklif qilishi, otga tutatqi berishi, zindondan ot yordamida chiqishi kabi o‘rinlarda “Alpomish” dostonidagi Tovka oyim va Alpomish munosabatlaridagi aynanlik ko‘rinadi. Xususan, “Alpomish”da Toychaxonning zindonda yotgan Alpomish suyakdan yasagan chanqovuzdan chiqqan kuyni eshitib, uni yasagan Alpomishni izlab kelib, “bir so‘z aytib turgan ekan:

*Sizga qurbon bu mening shirin jonim,
Zindon ichida g‘arib bo‘lgan mehmonim,
Men bildim, yangitdan so‘rab turaman,
Sizni bilib men ham xizmat qilaman...
Zindondan chiqarsam, nimam bo‘lasan?”(2, 226)*

Mazkur parcha va undan keyingi o‘rinlarda Tovka oyimning dil so‘zlari berilar ekan, baxshi Alpomish chiroyi dushman qizining xizmatkor yollab, lahm kavlatib, zindondagi Alpomishni qutqarishga undagan kuch – muhabbat deya izohlanadi. Aynan shunday jihatni biz Oftob oyim obrazida ham kuzatamiz. U ham Kunbotir yotgan zindon og‘ziga yashirin ravishda keladi-da gap orasida shunday deydi: “ – To‘ram! tulpordan, yarog‘-aslahadan anjomdan g‘am yemang, kunda bir qo‘y, ikki qo‘ydan g‘am kam yemang. minadigan tulpor otingizni yov-yarog‘ asbobingizni — barini Doro podsho mening otamga bergan. ... oqshom otam lashkariga bosh bo‘lib urushga jo‘naydi. U ketgan so‘ng, men sizni zindondan chiqarib olsam, menga nima bo‘lasiz?” (8,17-18) To‘maris haqidagi tarixiy rivoyatda bu kabi o‘rinlar uchramaydi. Biroq har qanday tarixiy voqea ham og‘izdan og‘izga o‘tib, badihago‘ylik jarayonida jiddiy badiiy ishlovga uchraydi. Shu ma’noda “Oysuluv” dostoniga ham xalq eposlariga xos qator an‘analar ham joriy etilgan. Albatta, bu, avvalo, baxshilarga doston tinglovchilar tomonidan qo‘yilgan talab va maqsaddan hamda baxshilarning doston kuylash asnosidagi imrovizatsiyasi natijasida yuzaga kelgan. Qolaversa, To‘maris jasorat ko‘rsatgan urush bilan doston yozib olgan davr o‘rtasida kechgan zamonlar ham voqeaning evolyutsion darajada o‘zgarib, asliyatdan uzoqlashishga sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Tahlilning shu erida trinar tahlilning gorizontalar emas, balki vertikal usulini ham kuzatish kerak bo‘ladi. Aniqroq aytganda, “Oysuluv” va “Alpomish”

dostonlarining bir-biriga munosabatida gorizontallik, yondoshlik mavjud. Ammo “Tarix” va “Oysuluv” asarlarida vertikallik yetakchilik qiladi. “Alpomish” da voqea va uning ishtirokchilari nutqi, ichki kechinmalari aniq va teranroq ifodalansa, “Oysuluv” da nasriy yo’lda qisqaroq bayon qilinadi. Gerodotda esa Kirning massagetlar yurtiga yurishi bilan bog’liq tarixiy bayon bo’lgani uchun shunday yo’l tutilgan (9).

M.Tvendan keltirgan tasvirda roviy yigirma-o’ttiz yillik voqeani, “Oysuluv” dostoni ekspozitsiyasidagi tasvirda esa nisbatan katta vaqtda kechgan voqealar tig’izlashtirilgan. Har ikkala asarda ham kompozitsiyadagi ichki vaqtni qisqa vaqt ichida, syujetni tig’izlikda aks ettirish mualliflarga asosiy voqealar genezisini teranroq tushunishga, shu bilan birga o’quvchini ham shunga tayyorlashga yordam bergan.

Bundan tashqari, Mark Tvendan keltirilgan parchada furiya detali bo’lib, u mifik obraz sanaladi. Furiya yovuzlik timsoli, kishilarni aybsiz aybdor bo’lish orqali jazolovchi, hammaga qahr-g’azab sochuvchi, vayronalik olib keluvchi qudrat sifatida berilgan. Yozuvchi roviy tilidan mamlakat fuqarolar boshiga tushgan fojia, o’limni furiya orqali ifodalagan. Shunga o’xshash mifik obrazni biz “Oysuluv” dostonidagi dev timsolida ko’rishimiz mumkin. U ham odamlar boshiga o’lim, yurtga buzg’unchilik olib keladi. Qizig’i, bu erdagi devlar Doro qo’shini tarkibida bo’lib, ular arxaik miflar kabi o’ziga mustaqil, butun insoniyatga yovuzlik qiladigan emas, balki, Doroga yaxshilik qilib, uning dushmanlariga qarshi kurashuvchi devlar ekanligi, dostonidagi mifik tafakkur ildizlari yangi davr mifiga aloqador ekanligini isbotlaydi. Shuningdek, mazkur devlar qirq ming deb keltiriladi. Devlarning soni shartli bo’lib, qirq soni sehrli raqamlar silsilasida o’ziga xos mustahkam o’ringa ega. Lekin ularning odamga bo’ysunishi va Oysuluvdan engilishida Oysuluv va Kunbotir devni ham bo’ysundira oladigan mifik qudratga ega obrazlar ekanligiga ishora qilingan. Natijada syujet voqealarining badiiy ta’sirchanligining ortishi, Oysuluv timsolida inson qudratini ulug’lashga xizmat qilgan desak mubolag’a bo’lmaydi. Paladinlar haqidagi lavhada ham shunga yaqin xususiyat uchrashi ikkala asarning poetikasidagi uyg’unlikni ko’rsatadi.

Shu o’rinda ta’kidlash lozimki, “Oysuluv” dostoni o’zi xalq og’zaki ijodi namunasi bo’lgani holda, undagi mifiklik, xususan, personajlarning devlar bilan olishuvi Kunbotir va Oysuluv lashkarlariga ta’sir etishida Janna d’Ark haqidagi romanda Fransiyaning o’n ikki afsonaviy qahramonlari bajargan badiiy-estetik funksiyasini amalga oshirgan deyish mumkin. Mark Tven fransuzlarning o’n ikki afsonaviy qahramonlari (Buyuk Karl izdoshlari, paladinlar) haqida bayon qilayotib, personajlarning xayolida o’sha voqealarni qayta jonlantirish orqali, ular qalbida o’z o’tmishidan ruhlanish, vatanparvarlikning shakllanishiga hissa qo’shadi: *“we saw each detail pass before us of that most stupendous, most disastrous, yet most adored and glorious day in French legendary history” (1, 30). (Fransiyaning bizdan oldin eng ahamiyatsiz, eng xavfli, biroq, mashhur va sharaflı bo’lgan afsonaviy tarixining eng mayda detallargacha ko’rar edik).* Bu esa yosh Janna va uning ikki dugonasi, xususan, mazkur voqealarni bayon etgan roviy — Lui de Kontga jiddiy ta’sir etadi. Chunki ular yurtiga ham tashqi dushman, inglizlar bostirib kirgan, bunda ularga Burgund gersogligi yordam bergan, butun xalq azob va qo’rquvda edi. Fransiyaning o’tmishdagi afsonaviy qahramonlari, xususan, paladinlar jasorati orqali bolalarda uyg’ongan milliy ozodlik tuyg’usi, Fransiyani qaytadan ozod va obod mamlakat sifatidagi azaliy orzusiga etishishga undaydi. Paladinlar aslida mustaqil Fransiya davlatchiligini tashkil etishda qiroli Buyuk Karlga sadoqat bilan xizmat qilgan vatan himoyachilari hisoblanadi. Bayonda

muallif vatanga sadoqatli odamlar zarurligi va ularning jasorati xalq orasida mavjudligiga ishora qilgan.

“Oysuluv” dostonidagi dev obrazi va “Janna d’ Ark” romanida ajdarho mifik obrazlar bo‘lib har ikkala asarda ham o‘ziga xos vazifani bajargan. Masalan, dostonda Oysuluvning devlar bilan kurashib, ularni yengishi timsolida ezgu niyatli insonlarni qora niyatli, mavhum maxluqlar, kishilarga yomonlik olib keluvchi devlardan xalos bo‘lish qudrati borligini ko‘rsatgan. Mark Tven romanida esa ajdarhoning dahshatini ko‘rib ulg‘aygan bolalar qalbida, shuurida olamni mifik-mo‘jizaviy ko‘rish, anglash istagi borligini ochib bergan: *In fact, one was still living in there in our own time. It was as long as a tree, and had a body as big around as a tierce, and scales like overlapping great tiles, and deep ruby eyes as large as a cavalier’s hat, and an anchor-fluke on its tail as big as I don’t know what, but very big, even unusually so for a dragon, as everybody said who knew about dragons.*(1, 13-14) (Aslida ulardan biri hali ham bizning davrimizda yashayotgan edi. Uning bo‘yi daraxtdak uzun bo‘lgan, katta tanasi esa bochkaga o‘xshardi, ko‘zlari – chavandozning shapkasidek katta, kattaqonli, tanasidagi qoplamalari ulkan sopol qoplamaga mengzardi, ikkiga ayrilgan, ilmoqqa o‘xshash dumi shu qadar ediki, uni ajdarho haqida ko‘p narsa biladiganlar ajdarho uchun noodatiy darajada ulkan deyishardi).

“Janna d’Ark”, “To‘maris” “Oysuluv” asarlarida yurt ozodligi, dushmanga qarshi kurash g‘oyasi mavjud bo‘lib, romanda dushman tomonidan bosib olingan, xarobazorga aylantirilgan yurtni ozod qilish, kishilar qalbida kelajakka ishonch uyg‘otish, fojiaga qarshi xalq qalbida nafrat, g‘azabni qayta shakllantirish, yosh avlodni xalq og‘zaki ijodi namunalarida kuylangan qadimgi milliy qahramonlar, diniy-mistik personajlardan ruhlantirishga intilish ko‘zga tashlansa, rivoyat va dostonidagi voqealarda esa ozod, erkin yashayotgan kishilar o‘z yurtlariga bostirib kirgan forslarga qarshi mardonavor kurashadi. Bunda mualliflar bo‘ysunmas, ruhan ozod xalq bilan ruhi singdirilgan, mamlakat talangan xalqni qayta uyg‘onishini qalamga olgan. Shu ma‘noda roman va tarixiy rivoyat o‘rtasida katta farq bor. Doston ham tarixiy voqeani badiiy ifodalashda badiiy to‘qima, an‘anaga katta o‘rin ajratilgani bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Lekin inglizlarning Fransiyaga bostirib kirishi va bunda uzoq kutilgan qahramon Janna timsolida kelishi va xalqni ozodlikka boshlab borishi, forslarning Turon hujumi va bunda Turon malikasi boshchiligidagi xalqning mardonavor jangi o‘rtasida o‘zaro o‘xshashlik mavjud.

Xulosa. Tarixiy-ijtimoiy hayotda, o‘z navbatida adabiyotda ham, ayol qahramonlar nisbatan kamroq bo‘ladi, lekin To‘maris va Janna d’Arklar tarixiy shaxs sifatida o‘z yurti, Vatani ozodligi uchun jasorat ko‘rsatgan ayol yo‘lboshchilar edi. Ular haqida yaratilgan tarixiy asar tipologik hodisa sifatida o‘zaro qiyosga muhtoj bo‘lib, mazkur muammoni o‘zbek va ingliz adabiyotshunosligi misolida amalga oshirishga harakat qildik. Bunda tipologiyaning ijtimoiy shart-sharoitlarini asarning g‘oyaviy-falsafiy mazmuniga ta‘siri, tarixiy asos bo‘lgan voqealarning ijodkorlar tomonidan badiiy ifoda etishdagi o‘xshash va farqli jihatlar, To‘maris haqidagi adabiyotlarning o‘zaro qiyosiy tahlil orqali esa badiiy evolyutsiyani ochib berildi.

Adabiyotlar/Литература/ References:

1. Twain, Mark. Personal Recollections of Joan of Arc. Published: 1896.-427 p.
2. Alpomish. Aytuvchi: Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, yozib oluvchi: M. Zarifov. Nashrga tayyorlovchi To‘ra Mirzaev.- – Toshkent: O‘qituvchi, 1987. – B.336.

3. Zarifov X.T. Arshak – SHak qahramoni / XX asr o'zbek folklorshunosligi. Antologiya [Matn] / Tuzuvchilar: O. To'laboev va boshqa. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – B. 36-48.
4. Imomov K. O'zbek xalq nasri poetikasi. – Toshkent: Fan. 2008. – 252 b.
5. Kollektiv. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. II tom. Adabiy tarixiy-tarixiy jarayon. – Toshkent: Fan. 1979. – 446 b.
6. Meli, Suvon. Trinar tipologiya (Platon-Pushkin – Hamid Olimjon) / O'zbek adabiyoti qiyosiy adabiyotshunoslik aspektida: ta'sir va tipologiya O'z.R.FA A. Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti. – Toshkent: Muharrir, 2013.-- B. 74-80.
7. Nazarov B. Adabiy ta'sir va tipologik yaqinlikni o'rganishning ayrim metodologik masalalariga doir / O'zbek adabiyoti qiyosiy adabiyotshunoslik aspektida: ta'sir va tipologiya. O'z.R.FA A. Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti. – Toshkent: Muharrir, 2013. – B 6-16.
8. Oysuluv. Xalq dostoni. Aytuvchi Ergash Jumanbulbul o'g'li. YOzib oluvchi Xodi Zarif. – B. 7-22. www.ziyouz.uz kutubxonasi;
9. Gerodot. Istoriya. Perevod i primechaniya G. A. Stratanovskogo. – Leningrad: Nauka, 1972 g. – 604 s.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 3 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).